

BA'ZI FRANSUZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARIGA DOIR

Maxammatqulova Dilshoda Nasimjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va fransuz maqollarining xususiyatlari va ma'nolari qanday holatlarda qo'llanilishi borasida so'z ketadi. Ushbu proverbial frazeologizmlar ifodalagan belgilarning oddiylashuvi kommunikativ jarayonni soddalashtirishga xizmat qilishi fransuz va o'zbek tillari misolida ochib berilgan. O'zbek va fransuz maqollari bir birga qiyoshlandi va sinonimlari berib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek maqollari, fransuz maqollari, xususiyatlari, sinonim, paremiologiya, lingvomadaniy, til, Nida, mentalitet, qiyoslash, Dal.*

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning turli jihatlarini o'rganish, paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvomadaniy jihatlariga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz. Ushbu maqolada o'zbek va fransuz maqollarining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va fransuz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir.

Tilshunos olimlardan Nida biror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ham ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o'tadi [5].

V.I.Dalning fikricha, maqollar -bu qisqa tajriba, masal, hukm, ta'limot. Maqol maqolga juda yaqin, ammo axloqiy ibratli ma'noga ega. Maqollar va matallar ommaga mashxur bo'lgan gaplar deb hisoblanishi kerak. Maqol va matal o'rtasidagi farq odatda maqolning umumiy hukmni ifodalashida ko'rinadi. (Il faut manger pour vivre, et non pas vivre pour vivre. Yashash uchun ovqatlanish kerak, ovqatlanish uchun yashash kerak emas), (qui ne dit mot, consent. Sukut -rozilik belgisi). Maqollar o'zining ixchamliligi, mazmunligi tufayli, o'quvchilarning lug'at boyligini, yangi lug'at bilan boyitishga, nutqiy qobiliyat va

ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu milliy-madaniy material til o'qitish jarayoniga kiritilgach, o'quvchilar til o'rganayotgan xalqning madaniy merosi bilan yaqindan tanishadilar, bu esa o'rganishga barqaror qiziqish uyg'otadi [1].

Maqol-bu gapning qaymog'idir. Qaysi xalq yoki millat tomonidan yaratilmasin, u mazmun mohiyatidan kelib -chiqib. boshqa davlat aholisi ham foydalanishi mumkin. Ammo maqollarni tarjima qilish tarjimonlar uchun talaygina muammolarni keltirib chiqaradi. Sabab sifatida shuni keltirib o'tish mumkinki, tarjimon o'z sohasidan tashqari, tarix, falsafa, boshqa fan sohalaridan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Bu haqida G'aybulloh Salomov "Tarjimonda yozuvchi va tanqidchidan, aktyor, rassom va olim mehnatidan ham nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon so'zshunos bo'lib, tahlil qiladi. Aktyor singari boshqalarning (shu o'rinda muallifning) qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda o'zligini saqlaydi..." [7] deya ta'kidlagan edi o'zining "Tarjima tavitishlari" kitobida. Demak, tarjima bilan shug'ullanish ham tarjimondan katta mahurat, yetuk bilim talab etadi ekan.

Quyida biz fransuz millatiga xos bo'lgan maqollar va ularning qanday ma'nolarda qanday holatlarda qo'llanilishi borasida fikr yuritamiz va u maqollarning o'zbek milliy maqollari bilan o'xshashligi ularning sinonimlarini o'rganamiz.

Quand on parle du loup, on en voit la queue bu fransuzcha maqolni o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak *Bo'rini eslasang dumi ko'rinadi*. Asosan turkiylar bo'rini totem darajasiga ko'targan xalq, ular ajdodlarimiz o'zlarini ko'k bo'rilar avlodidan deb hisoblashgan. Albatta islom dini ta'siri va zamonaning ta'siri tufayli bu qarashlar o'zgardi ya'ni bugungi turkiylar o'zlarini Odam Ato avlodidan ekanligini bilishadi. Bo'rini omad keltiruvchi deb hisoblashadi va yonlarida bo'rining tishkari, tirnog'ini saqlashadilar. Barchamizga ma'lumki, bo'ri yirtqich hayvon hisoblanadi, u kutilmaganda podaga hujum qilib qo'ylarni bo'g'izlab ketishini o'xshatma tarzida bo'rini eslasang dumi ko'rinadi maqoli paydo bo'lgan, bo'ri turkiy xalqlarga xos bo'lsada, ko'rib turganingizdek yevropa xalqida ham ushbu maqolni uchratish mumkin. Bu maqolning o'zbek tilidagi variant **:Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi** deya talqin qilinadi. har ikkala millatga ham xos bo'lgan ushbu maqol bir xil ma'noni anglatadi. Ushbu maqolni o'zbek xalq og'zaki ijodida xususan asarlarda ham uchratish mumkin. Misol uchun: **Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinarkan. Og'ir hayollardan qiynalib o'tirganida, bir kuni Ochil o'zi yo'qlab keldi. Xolxo'ja zo'rg'a uni tanidi** [4].

Keyingi boy tarixga ega bo'lgan fransuz xalqiga xos bo'lgan yana bir maqolni misol keltiradigan bo'lsak, **Qui seme le vent recolte la tempeste**. O'zbek tili tarjima qiladigan bo'lsak, *Kim shamol eksa bo'ron o'radi*. Fransuz tili nuqtai nazaridan ushbu maqolning qo'llanilish holatiga to'xtaladigan bo'lsak, kimki xavf yoki notinchlikni keltirib chiqarsa, uning oqibatlariga duch kelishiga hayron qolmasin. O'zbek tilida ushbu maqolning variantini keltiradigan bo'lsak, **Nimani eksang, shuni o'rasan**. Ya'ni insonning qilmishlari va harakatlari natijasida qanday oqibatlarga duch kelishini ta'kidlaydi. Bu maqol hayotiy saboq sifatida, agar kimgadir yaxshilik qilsang, albatta o'zingga yaxshilik qaytadi, agar kimgadir yomonlik qilsang, o'zinga ham yomonlikning javob bo'lishligini anglatadi.

Fransuz maqollarini tahlil qilishda davom etar ekanmiz, dangasalik, ishyoqmaslik ma'nosini anglatadigan ya'na bir maqolni shu o'rinda keltirib o'tish joizdir. ***Ne remets pas au lendemain ce que tu peux faire le jour meme.*** Bugungi qiladigan ishni ertaga qoldirma deya o'zbek tiliga tarjima qilish mumkin. ushbu maqolni fransuz adabiyoti asarlarida ham uchratish mumkin.

— *Monsieur Bombarnac, il ne faut jamais remettre au lendemain ce qui peut être fait le jour même.*

— *Oui, je sais... Time is money...*

— *Non! Time is time tout simplement, et n'en perdons jamais rien, fût-ce une minute* [6]

Xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf- odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o'rinda turadi. Asosan, har ikki tildagi maqollarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko'proq farqli tomonlarini o'rganib, o'zaro o'xshash tomonlarining umumiy jihatlarini ifodalashga harakat qilamiz. Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. ushbu maqol insonga yuklatilgan bajarishi kerak bo'lgan vazifa, ish, topshiriqni ertaga qoldirmasdan bajarish kerakligiga undovchi maqol deyish mumkin. Ushbu fransuz maqoli bilan bir xil ma'no anglatadigan o'zbek maqol ***“Bugungi ishni ertaga qo'yma”***, ya'ni bugun bajarishing kerak bo'lgan ishni vaqtida bajarishing kerak.

Buyuk vatandoshimiz Burxoniddin Marg'iloniy xazratlari o'zlarining *“Xidoya”* asarlarida shunday deydilar : *“O'z vaqtidan kechikib qilingan inom-ehson mahkam tortilgan zanjir misoli bo'g'uvchidir”* [2]. Ya'ni bu xikmatdan har qanday Maqol— xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Biz yuqorida g'azab, jahl kabi xislat, bugungi ishni ertaga qo'ymaslik kerakligi haqida, nimani yodingga tushsang, o'sha sodir bo'lishi, ya'ni kutilmagan insonning kelishi. nimani eksang, shuni o'rishing, ya'ni nima qilsang, shuni natijasini olish borasida maqollarning tahlil qildik va o'zbek maqollaridan misollar keltirdik.

Maqollarni o'rganish va ulardan foydalanish, insonlarga hayotdagi muammolarni hal etishda, misollar keltirishda yordam beradi va ularga axloqiy saboqlar beradi. Shuningdek maqollar milliy madaniyatni saqlash va avloddan -avlodga o'tkazishda muhim rol o'ynaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dehqonov I.T, Mo'minova T.S. Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari. /Farg'ona Davlat Universiteti axborot xabarlari. -N_3.2024. -B.935
2. Marg'inoniy. B. Xidoya. -Hilol:2022. -894 b
3. Moy Sylvie. 100 PROVERBES FRANÇAIS. -France:France-parler,2012. - 3
- 4.. Muxtor Asqad. Fano va Baqo. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/asqad-muxtor-1920-1997/asqad-muxtor-fano-va-baqo-hikoya>.
5. Salimova M.J., Yakubov Ja.A Fransuz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari /Вестник магистратуры N_1. 2021.-B.108-109
6. Verne Jules. Claudius Bombarnac. -Create Space Independent Publishing Platform. 2017. – 284 b.
7. Xamroyeva.S.B. Maqollar mohiyati va xususiyatlari. // Academic Research in Educational Sciences.2022.-B. 837.
8. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

